QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.024

FONETIKAGA OID O‘QUV MATERIALLARINING TAKOMILLASHISH BOSQICHLARI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: dganiyeva084@gmail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetikaga oid o‘quv materiallarining takomillashuv bosqichlari, talaffuz mashqlarining turlari va ona tili ta’limidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Unda nazariy, amaliy va integrativ bosqichlar, takrorlash, minimal juftliklar, intonatsion, ritm va tezlik hamda amaliy-integrativ mashqlar yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tili darsliklarida unli va undosh tovushlar, x va h, o‘ unlisi, urg‘u, imlo va talaffuz me’yorlarini o‘qitishdagi kamchiliklar, hududiy talaffuz farqlari ko‘rsatiladi. Tadqiqotda 5-sinf “Ona tili” darsligi misolida nazariy ma’lumotlar amaliy mashqlar bilan mustahkamlanmaganligi qayd etiladi. [x] va [h], [o‘] unlisi, q va g‘ undoshlari, paronimlar, imlo qoidalari bo‘yicha darslikdagi holat va taklif variantlar qiyoslanadi. Audio-video materiallar, AKT, interfaol metodlar va individual yondashuv orqali talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Xorazm, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo kabi hududlardagi tovush chalkashliklari misolida maxsus fonetik mashqlar, oksilografik chizmalar va darsliklarni takomillashtirish bo‘yicha muhim amaliy metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: fonetika, talaffuz mashqlari, ona tili ta’limi, o‘quv materiallari, nazariy bosqich, amaliy bosqich, integrativ bosqich, unli va undosh tovushlar, imlo va talaffuz me’yorlari, hududiy talaffuz farqlari, darslik va qo‘llanmalar, AKT va interfaol metodlar, oksilografik chizmalar.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы совершенствования учебных материалов по фонетике, типам упражнений на произношение и их значимости в обучении родному языку. Рассматриваются теоретический, практический и интегративный этапы, повторение, минимальные пары, интонация, ритм и темп, а также практико-интегративные упражнения. Также показаны недостатки в преподавании гласных и согласных, x и h, гласного o‘, ударения, орфографических и произношенческих норм в учебниках узбекского языка, а также региональные различия в произношении. В исследовании отмечается, что теоретическая информация не подкрепляется практическими упражнениями на примере учебника «Родной язык» для 5 класса. Сравнивается ситуация в учебнике и предлагаемые варианты по [x] и [h],

гласному [o‘], согласным q и g‘, паронимам, правилам орфографии. Обосновывается необходимость развития навыков произношения с помощью аудио-видеоматериалов, ИКТ, интерактивных методов и индивидуального подхода. На примере звуковой путаницы в таких регионах, как Хорезм, Самарканд, Бухара и Сурхандарья, представлены специальные фонетические упражнения, осциллографические рисунки и важные практические методические рекомендации по совершенствованию учебников.

Ключевые слова: фонетика, упражнения на произношение, обучение родному языку, учебные материалы, теоретический этап, практический этап, интегративный этап, гласные и согласные, нормы правописания и произношения, региональные различия в произношении, учебники и пособия, ИКТ и интерактивные методы, осциллографические рисунки.

Abstract. This article analyzes the stages of development for phonetic learning materials, the types of pronunciation exercises, and their significance in native language education. It outlines theoretical, practical, and integrative stages, covering exercises such as repetition, minimal pairs, intonation, rhythm and tempo, and practical-integrative tasks. Additionally, the article highlights shortcomings in Uzbek language textbooks regarding the teaching of vowels and consonants – specifically the sounds [x] and [h], the vowel [o‘], stress, and norms of spelling and pronunciation – as well as regional pronunciation variations. Using the 5th-grade "Native Language" textbook as a case study, the research notes a lack of practical exercises to reinforce theoretical information. It compares the textbook's current presentation with proposed improvements regarding the sounds [x], [h], [o‘], [q], and [g‘], as well as paronyms and spelling rules. The study substantiates the need to develop pronunciation skills through audio-video materials, ICT, interactive methods, and individualized approaches. Finally, drawing on examples of sound confusion in regions such as Khorezm, Samarkand, Bukhara, and Surkhandarya, the article offers practical methodological recommendations for improving textbooks through specialized phonetic exercises and oscillographic diagrams.

Keywords: phonetics, pronunciation exercises, mother-tongue education, learning materials, theoretical stage, practical stage, integrative stage, vowel and consonant sounds, spelling and pronunciation norms, regional pronunciation differences, textbooks and manuals, ICT and interactive methods, oscillographic diagrams.

KIRISH. Talaffuz mashqlarini takomillashtirishda interfaol metodlar va AKT muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, audio materiallar o‘quvchiga so‘z va jumlalarni to‘g‘ri eshitish hamda takrorlash imkonini bersa, video materiallar intonatsiya va urg‘uni vizual tarzda ko‘rsatadi. Shuningdek, individual yondashuv o‘quvchining talaffuzdagi xatolarini aniqlash va tuzatishda samarali yordam beradi. Natijada, fonetika o‘qitish nazariy bilim, amaliy mashq va nutqiy integratsiya uyg‘unligida tashkil etilsa, o‘quvchining talaffuz madaniyati yanada mustahkamlanadi.

Natijada, fonetikaga doir o‘quv materiallari talaffuz mashqlari orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi va ular muntazam takomillashtirilishi kerak. Bu esa

o‘quvchilarning nutq madaniyati, talaffuz aniqligi va tilni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[1].

Mashq turi	Mazmuni	Metodik vazifasi	Kutiladigan natija	Qo‘llaniladigan vositalar
Takrorlash mashqlari	So‘zlar, jumlalarni o‘qituvchi yoki audio materialdan eshitib takrorlash	Talaffuzni mustahkamlash, fonemalarni aniqlash	O‘quvchining talaffuz aniqligi oshadi, xatolar kamayadi	Audio materiallar, interaktiv dasturlar
Minimal juftliklar bilan mashq	Bir-biriga o‘xshash, lekin fonemasi turlicha bo‘lgan so‘zlar bilan mashq qilish	Fonemalarning farqlanishini o‘rganish, tinglash va talaffuzni rivojlantirish	O‘quvchi fonemalarni aniq ajratadi, talaffuz aniqligi oshadi	Darslik, audio materiallar
Intonatsion mashqlar	Jumla va matnlarda intonatsiya va urg‘uni o‘rgatish	Nutqning tabiiyligini, intonatsiya va urg‘uni shakllantirish	O‘quvchi nutqda urg‘u va intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llaydi	Video materiallar, audio yozuvlar
Ritm va tezlik mashqlari	Matnni turli tezlik va ritm bilan o‘qish	Nutq ritmi va tezligini rivojlantirish, talaffuzni tabiiylashtirish	Nutq tabiiy va tushunarli bo‘ladi, talaffuz xatolari kamayadi	Audio-video materiallar, interaktiv dasturlar
Amaliy integrativ mashqlar	Nutqiy vaziyatlarda talaffuzni qo‘llash, dialog va monologlar	Nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, interfaol nutqni shakllantirish	O‘quvchi talaffuzni nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi, intonatsiya va urg‘u uyg‘unlashadi	Rolli o‘yinlar, video materiallar, AKT vositalari

Vaholanki, o‘zbek o‘quvchilariga ham fonetika ta’limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumiy grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta’lim berish, fonetik mashqlarga imkoni boricha boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘rin ajratish, yuqori sinflarda ularga o‘rni bilan qaytib turish adabiy til meyorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tilni o‘rganish tovushdan boshlanadi. Har qanday tilda unli tovushlar muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, turkiy tillarda. Unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi, urg‘u oladi, musiqiylik kasb etadi. Eng asosiysi, muloqotning jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi, agar so‘zlovchi uni to‘g‘ri talaffuz qila olsa. O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitishda eng katta muammolardan biri bu adabiy talaffuzga o‘rgatish, to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozishga o‘rgatish bo‘lib, bu, albatta, unli tovushlar bilan bevosita bog‘liq. Bugunga qadar o‘zbek o‘quvchisi o‘z ona tili tovushlarini to‘g‘ri ayta olmayotgan ekan, demak, buning ikkita sababi bo‘lishi mumkin:

birinchidan, ilmiy lingvistik asoslarning yetarli emasligi, ya’ni o‘zbek tilida unli tovushlar va ularni ifodalovchi grafemalarning nomutanosibligi;

ikkinchidan, metodik jihatdan yetarlicha o‘rganilmaganligi, ya’ni o‘zbek tili tovushlarini o‘qitishning pragmatik usullari ishlab chiqilmagan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yetarlicha joriy etilmaganligi.

Ona tili ta’limida bugun ham qaysi sinfda nimani o‘qitish, unli tovushlarni o‘qitishda o‘quv topshiriqlardan qaysi birini qo‘llash kabi muammolar hal etilmay turibdi. Ta’lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta.

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner[11] va M.N.Skatkinlar ta’lim mazmuniga o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar. Ilmiy-metodik adabiyotlarda “ta’lim mazmuni” tushunchasi bilan birga “o‘quv materiali” atamasi ham qo‘llaniladi**.** Didaktikada o‘quv materiali tushunchasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda u “ta’lim mazmuni” tushunchasiga teng bo‘lsa, tor ma’noda ma’lum darajada o‘rganilishi kerak bo‘lgan, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta’lim mazmuni deganda 1) o‘quv rejalari, 2) o‘quv dasturlari, 3) darsliklar, 4) o‘quv-metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi[3]. Shu ma’noda, “Ona tili” darsliklarida fonetikadan o‘quv materiallarining berilishi, xususan, unli tovushlarni o‘qitish bo‘yicha ta’lim mazmuni o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani to‘la bajara olmayapti, zero tilning tashuvchilari o‘z ona tillaridagi unli tovushlarning akasriyatini to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi. Buning asosiy sabablaridan yana biri ona tili o‘qituvchilarining asosiy qismi unli tovushlarni to‘g‘ri aytolmaydi, fonetika o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilim va malakalari yetarli emas.

Bu borada Q.Husanboyevaning ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritishi[4] nihoyatda to‘g‘ri yondashuv. Chunki orfoepiyani o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o‘qituvchidan o‘rganadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’lim mazmunining yoyilmasi o‘qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida unli tovushlarni o‘qitishning o‘rganilishi ayrim holatlarni ta’rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, o‘zbek tilining fonetik qurilishi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki o‘zbeklardan ham qunt bilan ishlashni talab etadi. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o‘z nutqlarida g‘ayritabiiy talaffuzlardan foydalanishlari kishining g‘ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy talaffuz me’yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtira olmaganliklarini sezdirib turadi.

Vaholanki, o‘zbek o‘quvchilariga ham unli tovushlarni o‘qitish ta’limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumiy grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta’lim berish, fonetik mashqlarga imkoni boricha boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘rin ajratish, yuqori sinflarda

ularga o‘rni bilan qaytib turish adabiy til me’yorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozim.

Muhokama.

Maktab “Ona tili” darsliklarida ham, oliy ta’lim darsliklarida ham unli tovushlarni to‘laligicha o‘qitish imkonini beruvchi fonetik mashqlarga o‘rin ajratilmagan. Bu holat o‘zbek adabiy talaffuz me’yorlarining o‘quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta’limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o‘zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz[7].

Tilshunoslikning “Fonetika” bo‘limi “Orfografiya” va “Orfoepiya” bilan bevosita aloqador bo‘lganligi bois ularni o‘qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog‘liq.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir.

Amaldagi dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim. (Chunki maktabda ona tili ta’limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi.) Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Hozirda respublika miqyosida amalda bo‘lgan maktab darsliklaridagi o‘quv topshiriqlarining ayrimlari belgilangan talablarni qondira olmaydi.

Bugungi kun ona tili ta’limi maktabda o‘rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat’iy nazar, hatto unli tovushlarni o‘qitishda ham o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, shu orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo‘nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o‘zbek tilining tengsiz xazinasi hisoblangan maxsus leksik boyliklarisiz samarali bo‘lishi qiyin, bizningcha.

“Ona tili” darsliklarida to‘g‘ri talaffuz va imlo me’yorlarini ko‘nikma sifatida shakllantirish borasida ko‘plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o‘quvchiga o‘rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Adabiy talaffuz va uning me’yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o‘rganilganligini kuzatamiz [ingliz, fransuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo‘lish jarayoni haqida batafsil ma’lumot beriladi[10]. Oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarda tovushlarning talaffuz holati aks

etgan maxsus chizma (rasm)lar yo‘q. O‘zbek tiliga xos bo‘lgan ayrim unli tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini oddiy, an’anaviy mashqlar bilan yetarli darajada o‘rgatib bo‘lmasligini bugungi o‘quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o‘qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

Muammoning bir uchi yana o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘qitish masalasiga borib taqaladi. O‘rta umumta’lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari “Unli tovushlar” bo‘limi tarkibida tizimli o‘qitila boshlaydi. Unli tovushlarni o‘qitish ta’limi taqozosiga ko‘ra shu yerda o‘quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to‘g‘ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo‘yiladi.

G‘.Hamroyevning ta’kidlashicha, “O‘zbek adabiy tili turli lahjalardan o‘sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog‘liq jiddiy muammolar bor. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, unli tovushlarni o‘qitishga doir o‘quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta’sirini inobatga olishlari kerak. Shu ma’noda dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtayi nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e’tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so‘zlar talaffuzida [**q]** undoshi o‘rnida [**k]** nutq tovushini qo‘llash ko‘nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o‘quvchiga adabiy talaffuz me’yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo‘lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o‘quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o‘qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Buxoro, Samarqand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [**o‘]** unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin[2].

Bu borada Samarqand viloyatiga alohida to‘xtalish mumkin. Pastdarg‘om, Urgut va Nurobod tumanlarida [**i]–[e]** unlilarining aytilishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo‘g‘on tumanida [**o‘]– [u]** unlilarining ishlatilishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, o‘quvchilar, hatto o‘qituvchilar ham [**o‘]** unlisini **[u]**, **[u]** unlisini [**o‘]**o‘rnida qo‘llaydilar:

T/r	**Hudud**	**Talaffuzda chalkashtiriladigan unli tovushlar**	**Talaffuzda chalkashtiriladigan unli tovushlar**
1.	**Pastdarg‘om tumani**	I–E, U–O‘	O, A
2.	**Urgut tumani**	I–E, U–O‘	O, A
3.	**Kattaqo‘rg‘on tumani**	U–O‘	O, A

Shuni ta’kidlash kerakki, turkiy tillar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko‘ra ohanglashuvi hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydi. O‘zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o‘zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e’tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko‘ra zidlanishni o‘zida saqlab kelayotgan o‘zbek shevalarida bir o‘rinda qator bo‘yicha korrelyatlarning o‘zaro almashinib ma’no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, Andijon shevasida o‘t (organizm) - Öt (maysa, olov), o‘r (o‘tni o‘rmoq)- Ör (sochni o‘rmoq),

un (ovoz)- un (g‘allaning tortilgani). Lekin hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun, darhaqiqat, qator belgisi fonologik qimmatini yo‘qotgan. Shuning uchun hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo‘la olmaydi[6].

Prof. E.Umarov o‘zbeklar yuqoridagi unlilarni haqiqatan tilning oldida yoki orqasida talaffuz qiladilarmi, ya’ni o‘zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan gapiradilarmi degan savol qo‘yib, o‘zlari unga hech ikkilanmay “yo‘q” deb javob berish kerakligini bayon qiladi. Muallif ikkinchi maqolasida unlilarni og‘izning ochilish darajasiga va labning ishtirokiga ko‘ra tasnif qilish o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi[9].

Natijalar.

Ko‘rinadiki, 5-sinf “Ona tili” darsligida yuqorida keltirilgan nutq tovushlarini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan nazariy ma’lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar yetarli emas. Mazkur nutq tovushlarini sanab o‘tilgan hududlarning o‘quvchilari nutqida adabiy me’yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo‘llanmalarda deyarli e’tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar, tovushlar talaffuzi jarayonida nutq a’zolarining ko‘rinishi aks etgan alohida oksilografik chizma(rasm)lar ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi.

O‘zbek tilida **[o‘]** unlisi so‘zning turli o‘rinlarida bir-biridan farqli talaffuz etilishi ma’lum, biroq uni o‘quvchilarga farqlab berish masalasi muammoligicha qolmoqda. **[o‘]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq nozik jihatlarga aksariyat ona tili darsliklarida e’tibor qaratilmasligi o‘quvchilarimizning adabiy nutq me’yorlarini to‘la o‘zlashtirishlariga soya tashlab turadi. Oliy ta’limning sohaga tegishli amaldagi darsliklarida mazkur masalaga qisman e’tibor qaratilgan nazariy ma’lumotlar uchraydi, ammo u amaliy jihatdan ishlanmagan[8]. Ta’kidlash kerakki, bugun keng amaliyotda bo‘lgan 5-sinf “Ona tili” darsligidagina **[o‘]** unlisi talaffuzda farq qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar misollari bilan keltirilgan[5]. Bu, albatta, ijobiy hodisa, biroq “bir holatda torroq, boshqasida kengroq aytiladi”, degan izoh o‘quvchiga amaliy jihatdan yordam berishi qiyin. Keltirilgan misollarni o‘qituvchi ko‘magisiz to‘g‘ri talaffuz qilib bo‘lmaydi.


Masalan, torroq aytilishiga ***ko‘l,*** kengroq aytilishiga ***bo‘ri*** so‘zlari misol tariqasida keltirilgan bo‘lsa-da, bu hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuni inobatga olib, **[o‘]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq mashqlarga keng o‘rin berish zarur.

A.Abduazizov bu ikki guruh tilshunoslarning tasnif asoslariga o‘z munosabatini bildiradi[1]. Biroq A.Abduazizov indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish-ajralmasligi tadqiqot obyektiga bog‘liq. V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o‘zbek tilidagi **i, u, o‘, a** unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o‘zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash asosida berilishini ta’kidlaydi[12]. Bizningcha, V.V.Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o‘zbek tili fonologik sistemasiga diaxron nuqtayi nazardan yondashgan. U o‘zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator bo‘yicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo‘qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo‘lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan – konvergensiyasidan hosil bo‘lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan[12].


5-sinfda unli tovushlarni o‘qitish sathi ta’limini takomillashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ham muhim ahamiyatga molik. Ma’lumki, maktabda bugungi “Ona tili” o‘quv predmeti ta’limida omilkor o‘qituvchilar tomonidan ko‘plab innovatsion texnologiyalar zamon talablariga mos holda qo‘llanilmoqda. Tabiiyki, bu “Unli tovushlarni o‘qitish” sathi ta’limida, jumladan, o‘quvchiga nutq tovushlarining to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish jarayonida juda qo‘l keladi. Ammo amaldagi ishlar yetarli darajada emas, chunki o‘quvchilar nutqida tovushlar talaffuzi bilan bog‘liq muammolar to‘la bartaraf bo‘lgani yoki mazkur muammoning yechimi sifatida asosli tavsiya-yu metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilib keng amaliyotga tatbiq etilgani yo‘q.

Ona tili darsliklari uchun taqdim qilingan nazariy ma’lumotlar:

X tovushi og‘izda (kichik tilda), h esa bo‘g‘izda hosil bo‘ladi. [*h*] - *bo‘g‘iz undoshining talaffuz qilinishida* [*x*] *tovushidan farqli o‘laroq, o‘pkadan kelayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida til va tanglay orasidan erkin o‘tayotganligi sababli deyarli shovqinsiz hosil bo‘ladi*: *h-h-h...*



[*x*] – *undoshining aytilishida esa tilning orqa qismi qattiq tanglayga juda yaqin bo‘lganligi sababli o‘pkadan kelayotgan havo oqimi tor oraliqdan siqilib o‘tishi natijasida qattiq titrash orqali kuchli shovqindan hosil bo‘ladi*: *x-x-x...*



Ko‘pincha so‘zlarda, bir bo‘g‘inda (e) unlisidan keyin (h) harfi keladi: meh-mon, deh-qon, eh-tirom, mehr, meh-rob, meh-ribon, sehr, cheh-ra, eh-son, eh-tiyoj, eh-timol, eh-tiros, eh-tiyot, eh-rom..., shuningdek texnika, mexanik kabi o‘zlashma so‘zlar bu qoidaga bo‘ysunmaydi.

So‘zlarda, bir bo‘g‘inda (i) unlisidan keyin ko‘pincha (x) chuqur til orqa undoshi keladi: ixtiyor, ixlos, ixtiro, ixcham, pix, mix, six..., ammo sihat, jihat so‘zlari bundan farq qiladi.

Sherbakning ta’kidlashiga ko‘ra, turkiy tillarda unlilarning eng muhim farqlovchi belgilaridan biri kenglik va torlik, ya’ni og‘izning ochilish darajasiga xos belgidir. Bu belgisiga ko‘ra unlilar bir qator turkiy tillarda, xususan, yoqut, oltoy, karagas, tuva, qirg‘iz, bolqor tillarida ikki bosqichli oppozitsiyani tashkil qiladi: a,(ã), o, õ - keng (kompakt), i, ĩ, ü, u - tor (diffuz). Unli fonemalarning soni ularning miqdoriy belgisiga ko‘ra zidlanishini hisobga olmaganda, yuqoridagi tillarda sakkizta sanaladi. O‘zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarda uch bosqichli zidlanish mavjudligi ko‘rsatiladi: keng **a o** yarim keng **e o‘** tor **i u**. Unlilarning keng, yarim keng, tor deb bo‘linishlariga sabab shuki, ularni talaffuz qilish paytida quyi jag‘ning pastga tushuvi yoki tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytishimiz mumkinki, kasbiy ta’lim tizimida fonetikaga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy kasbiy faoliyatda mutaxassisning faqat nazariy bilimga ega bo‘lishi yetarli emas, balki uning fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, ravon hamda adabiy til me’yorlariga muvofiq ifodalay olishi ham muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogika, tibbiyot, xizmat ko‘rsatish, turizm, axborot texnologiyalari, huquq, boshqaruv va boshqa kommunikativ faoliyat bilan bevosita bog‘liq kasblarda talaffuz madaniyati mutaxassisning kasbiy kompetentligini namoyon etuvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, kasbiy ta’lim muassasalarida fonetik o‘quv materiallarini faqat nazariy ma’lumotlar bilan cheklab qo‘ymasdan, ularni ta’lim oluvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog‘langan amaliy topshiriqlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Masalan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy terminlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, kasbiy muloqot jarayonida urg‘u va intonatsiyadan o‘rinli foydalanishi, nutq tovushlarini aniq farqlashi hamda hududiy talaffuz xususiyatlarini adabiy talaffuz me’yorlariga moslashtira olishi uchun maxsus fonetik mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Xulosa.

Kasbiy ta’lim jarayonida fonetik mashqlarni kasbiy vaziyatlarga moslashtirish ta’lim oluvchilarning amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi. Bunda dialoglar, rolli o‘yinlar, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, mutaxassis va mijoz o‘rtasidagi muloqot, taqdimot, suhbat, intervyu, xizmat ko‘rsatish jarayonlari hamda kasbiy terminlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bunday mashqlar fonetik bilimlarni real nutqiy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shuningdek, audio-video materiallar kasbiy ta’lim oluvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Audio materiallar orqali kasbiy terminlarning namunaviy talaffuzini tinglash va takrorlash, video materiallar yordamida esa nutq a’zolarining harakati, urg‘u, intonatsiya va nutq tempi bilan bog‘liq jihatlarni kuzatish mumkin. AKT vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchiga o‘z talaffuzini mustaqil nazorat qilish, xatolarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich tuzatish imkonini beradi.

Demak, fonetikaga oid o‘quv materiallarini kasbiy ta’lim mazmuni bilan integratsiyalash ta’lim oluvchilarning nafaqat fonetik bilimlarini, balki kommunikativ, nutqiy va kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv fonetika ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytirib, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat jarayonida adabiy talaffuz me’yorlariga rioya qilgan holda samarali muloqot qila olishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduazizov A.A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent, 2021. – 178 b.

2. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llama. – Toshkent: Bayoz nashriyoti, 2018. – 197 b.

3. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun

qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

4. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok-ri diss. avtoref. –T.: TDPU, 2006. – 262 b.

5. Mahmudov N. va b. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. – Toshkent, 2013. – 224 b.

6. Nabiyeva D., Zokirova H.O’zbek tili fonetikasi o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Andijon: 2016.

7. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. I qism. – T:. O‘quvpeddavnashr, 1937. – 149 b.

8. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston, 1992. – B. 19.

9. Umarov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unlilarni tasniflash masalasiga doir. //O‘zbek tili va adabiyoti. №2. 1995. – B. 52-53.

10. Бонк Н. А., Котий Г. А., Лукянова Н. А. Учебник английского языка. – М.: Деконт, 1999.

11. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981. – 186 с.

12. Решетов В.В. Узбекский язык. И Фонетика. Ташкент: Учпедгиз, 1959. – 357 с.